



## UZGASTRADE AKSIYADORLIK JAMIYATI BUYRUQ

“02” 02 2024 yil. 5 - um - son

Toshkent sh.

### ISO 37001-2016 korrupsiyaga qarshi standartini “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatida qo’llashni ko‘zda tutuvchi xujjatlar to‘plamini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldag‘i “Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan ISO 37001-2016 korruptsiyaga qarshi standartini ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarda joriy etishni tashkillashtirishda ishlab chiqilgan xujjatlar to‘plamini Jamiyatning Komplayens – nazorat bo‘limi vazifa va funksiyalariga moslagan holda qabul qilish maqsadida,

#### BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan ISO 37001-2016 korruptsiyaga qarshi standartini Jamiyatda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi tavsiyaviy xujjatlar to‘plami ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. “UzGasTrade” AJning Korruptsiyaga qarshi kurashish Siyosati 1-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. “UzGasTrade” AJda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 2-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. “UzGasTrade” AJda aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xattixarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 3-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. “UzGasTrade” AJ xodimlarining etika va korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomma 4-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. “UzGasTrade” AJda kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomा 5-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. “UzGasTrade” AJda ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomा 6-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. “UzGasTrade” AJda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 7-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. “UzGasTrade” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati va to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom 8-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. “UzGasTrade” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti 9-Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


11. “UzGasTrade” AJ xodimlari va fuqarolar o‘rtasida yuzaga keladigan turli masalalarni tezkor hal qilish maqsadida aloqa kanallari AKT va raqamlashtirish bo‘limi (O.Xodjiyev) tomonidan yo‘lga qo‘yilsin.

12. Jamiyatda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi tizim faoliyati va korrupsiyaga oid turli xavflarini bartaraf etish natijasida ISO 37001-2016 muvofiqlik sertifikatining qo‘lga kiritilishi Jamiyatning Komplayens nazorat bo‘limi (S.Mirzamoydinov) bilan barcha boshqarma va bo‘lim rahbarlari birgalikda ishlar jadallashtirilsin.

13. Ijro nazorati bo‘limi (U.Ruziyev) mazkur buyruqni Jamiyatning barcha tarkibiy bo‘limlari e’tiboriga yetkazsin.

14. Ushbu buruqning nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Boshqaruv raisi**



**A.Agzamov**

**“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining \_\_\_\_\_.\_\_\_\_\_.2024-yildagi  
sonli buyrug‘iga kelishuv varag‘i**

**Kiritildi:**

Komplayens nazorat bo‘limi  
boshlig‘i



S. Mirzamoydinov

**Kelishildi:**

Boshqaruv raisining  
tijorat masalari bo‘yicha  
birinchi o‘rnbosari




R. Tulyaganov

Yuridik bo‘lim  
boshyuriskonsulti



U. Tuychiyev

Personalni boshqarish bo‘limi  
boshlig‘i



B. Nurmatov